



NAFAS TIZIMI KASALLIKLARI BILAN KASALLANGAN BEMORLARNI PARVARISHI VA ULARNING NAZORATI

Yo'ldoshaliyeva Odinaxon Muzaffar qizi

Farg'ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Insituti 1-bosqich talabasi

Tursunaliyeva Hojiraxon G'ulomjonovna

Farg'ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot insituti kafedra assistenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17986276>

Annotatsiya. Ushbu maqola orqali nafas olish tizimi kasalliklari bilan kasallangan bemorlarda parvarish olib borishning eng zamonaviy usullari, ularning faoliyat holatini baholash, kuzatib borish va nazoratga olishning ilmiy asoslari yoritib beriladi. Surunkali obstruktiv o'pka kasalligi (SO'OK), pnevmoniya, bronxit, bronxial astma, o'pka fibrozi, tuberkulyoz kabi keng tarqalgan nafas olish tizimi patologiyalari aholi orasida keng tarqalgan bo'lib bemorlarning sog'lig'i, ularning mehnat faoliyatiga bevosita tas'ir o'tkazadi. Ushbu sababdan nafas olish funksiyasini kuzatish, kislorod terapiyalari, fizioterapiya, o'pka drenaji, ingalyatsion muolajalar bajarish talab etiladi. Ushbu maqola orqali bemorlarga ko'rsatiladigan parvarish sifatini yanada yaxshilash, ulardan qoladigan asoratlar oldini olish, shoshilinch holatlarda to'g'ri qaror qabul qilish masalalari muhokama qilinadi. Qolaversa, nafas tizimi kasalliklarining o'sib borayotgan dolzarbligi, ijtimoiy, ekologik omillar ko'rsatayotgan ta'siri, profilaktik choralar ko'rish ham yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: SO'OK, pnevmoniya, bronxit, bronxial astma, fizioterapiya, kislorod terapiya, ingalyatsion muolajalar, parvarishlash, profilaktika, ventilyatsiya, respirator yordam, parvarish rejasi, tibbiy nazorat, shoshilinch yordam, gigiyenik parvarish, reanimatsiya.

Nafas olish tizimi odam organizmining hayotiy funksiyakarining eng muhimlaridan bo'lgan gaz almashinuvini ta'minlab beruvchi murakkab tuzilgan organlar majmuasi hisoblanadi. Ushbu sistemaning normal holatda faoliyat olib borishi orqali kislorodning kerakli organlar va to'qimalarga yetkazilishi, karbonat angidridning to'qimalardan o'pka orqali chiqarilishi amalga oshadi. Nafas olish kasalliklari eng rivojlanib borayotgan kasalliklardan hisoblanadi, eng ko'p uchraydi va jiddiy asoratlar qoldirishi mumkin. Shu sababli, ushbu organ kasalliklarini davolashdan ham ko'ra ularni profilaktika qilish ushbu kasalliklarni aholi orasida kamaytirishda muhim yo'nalish hisoblanadi. Chunki kasalliklar nafaqat sog'liqqa, balki mehnat faoliyatiga ham ta'sir qiladi. Havotomchi yo'l orqali yuqishi sababli aholi o'rtasida keng tarqaladi. Shu sababli kasallik bilan og'rikan odamlarda turli muommolar kelib chiqadi. Bu maqolada ushbu kasallik bilan og'rikan bemorlarning parvarish qilinishida qo'llaniladigan usullar,





bemorlar holatini monitoring qilib borish va nazorat qilishning ahamiyatini yoritib beriladi. Bundan tashqari kasallikning kechishi, xavf omillari, bemorlarda o'z-o'zini to'g'ri parvarish qilish va kasallikning profilaktikasi masalalari yoritib beriladi.

Mavzuning dolzarbligi: Nafas olish sistemasi kasalliklari hozirgi davr tibbiyotining eng muhim, shu bilan birgalikda dolzarb bo'lgan muommolaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining deyarli barcha viloyatlarida 2025-yilning oxiriga kelib havoning keskin darajada ifloslanib ketishi nafas tizimi organlariga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qo'ymadi. Ekologik sharoitning yomonlashib borishi, havoning ifloslanishi, odamlar orasida chekishning keng ko'lamda tarqalib borishi, infeksiyali kasalliklar ko'pligi va odamlarda immun tizimi faoliyatining tushib borishi nafas tizimiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Gripp mavsumi boshlanishi bilan Covid-19 hamda Grippning turli shtammlari tarqalishi aholi orasida surunkali hamda o'tkir kechishi aholini tibbiy xizmatlarga bo'lgan talabini oshirmoqda. Bemorlarning to'g'ri parvarish qilinishi orqali ularning sog'ayishini tezlashtirish, kasallikdan qoladigan asoratlarni kamaytirish, hayot sifatini yaxshilashga olib kelmoqda. Bundan tashqari nafas tizimi kasalliklari yurak qon-tomir va onkologik kasalliklardan keying 3-o'rinda turadi va o'pka kasalliklari sababli nogironlik holatlari ko'payib bormoqda. Mikroorganizmlarning turli antibiotiklarga chidamli bo'lib borishi ham mavzuning eng dolzarb nuqtasi hisoblanadi. Nafas olish organlari kasalliklarini davolash, ularni oldini olish tibbiy statistika, shu jumladan milliy sog'liqni saqlash tizimini faoliyatini samaradorlik darajasini oshirib beradi.

Tadqiqot maqsadi: Tadqiqotning asosiy maqsadi nafas olish sistemasi kasalliklari bilan og'rikan bemorlarni parvarish qilish jarayonini o'rganish, aholiga samara beradigan parvarishlash yo'llarini aniqlash, bemorlar holatini muntazam ravishda nazorat qilib borish qanchalik muhimligini ko'rsatish hamda zamonaviy yondashuvlarni yanada takomillashtirishdan iborat. Bu orqali odamlarda nafas olish kasalliklarini yengilroq holatda kechishiga, asoratlarning oldi olinishiga, bemorlarning hayot sifatini yaxshilashga, mehnat samaradorligini oshirishga erishiladi.

Asosiy qism: Nafas olish sistemasi inson organizmining eng muhim fiziologik tizimlaridan bo'lib, uning asosiy vazifasi tashqi muhitdan kislorodni qabul qilish, uni organ va to'qimalarga yetkazish va almashinuv jarayonida hosil bo'lgan karbonat angidridni chiqarib yuborishdan iborat. Nafas olish tizimi kasalliklari bu murakkab jarayonlarning buzilishi bilan kechadigan, turli etiologiyaga ega patologik holatlardir. Ular o'tkir yoki surunkali ko'rinishda





bo'lishi, yengil darajadan tortib hayot uchun xavfli og'ir shakllargacha rivojlanishi mumkin.

Hozirgi kunda pnevmoniya, bronxit, bronxial astma, surunkali obstruktiv o'pka kasalligi (SO'OK), o'pka fibrozi, tuberkulyoz, o'pka yetishmovchiligi kabi kasalliklar keng tarqalgan. Kasalliklarning keng tarqalishiga havoning ifloslanishi, chekish, allergiya va virusli/bakterial infeksiyalar asosiy sabab bo'lmoqda.

Shuningdek, nafas tizimi kasalliklari ko'pincha bir-biri bilan bog'liq holatda rivojlanadi: masalan, o'tkir bronxit pnevmoniyaga o'tishi mumkin, uzoq davom etuvchi bronxial astma o'pkaning tuzilmaviy o'zgarishlariga olib keladi, surunkali bronxit esa SO'OKning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Shu sababli nafas tizimi kasalliklari haqida umumiy ma'lumotga ega bo'lish, ularning patogenezi tushunish, klinik belgilarini aniqlash va to'g'ri parvarish usullarini ishlab chiqish tibbiyot amaliyotida muhim ahamiyatga ega.

Nafas tizimi kasalliklarining kelib chiqish sabablari ko'p bo'lib, ular quyidagi guruhlarga bo'linadi: Infeksiyon omillar Viruslar: gripp, paragripp, adenovirus, COVID-19, RSV. Bakteriyalar: pnevmokokk, stafilokokk, streptokokk, Klebsiella, Haemophilus influenzae. Zamburug'lar: Candida, Aspergillus (immuniteti past bemorlarda). Viruslar ko'pincha yuqori nafas yo'llaridan pastki nafas yo'llariga tarqaladi va yallig'lanish jarayonini boshlaydi. Bundan tashqari no-infeksiyon omillar ham bor. Allergenlar: chang, polen, hayvon tuklari, kimyoviy moddalar; ifloslangan havo: sanoat chiqindilari, transport gazlari; chekish: faol va passiv; ishlab chiqarish xavflari: shaxta changi, metall va kimyo sanoati aerozollari. Organizmning ichki omillari ham bo'lib, ular immunitetning pasayishi, genetik moyillik, yoshi (keksalarda ko'p uchraydi), kronik kasalliklar kabi belgilar bilan namoyon bo'ladi.

Patogenezi kasallikning rivojlanish mexanizmini tushuntirib beradi. Nafas olish tizimi kasalliklarining patogenezi bu kasallikning rivojlanish mexanizmi, ya'ni zararli omillar ta'sirida o'pkalar, bronxlar, plevrada kelib chiqadigan o'zgarishlar majmui hisoblanadi. Patogenning nafas yo'lga kirishi virus yoki bakteriya bronxlar epiteliy hujayralariga yopishib ko'payishni boshlashu bilan boshlanadi. Yallig'lanish jarayonida shilliq qavat shishadi, gipersekresiya (ortiqcha balg'am ajralishi) yuzaga keladi. Bronxlar o'tkazuvchanligining buzilib shilliq, o'lik hujayralar va yara o'chog'i bronxlarni toraytiradi. Alveolalarda gaz almashinuvi buzilib, kislorod qabul qilish kamayadi ya'ni gipoksemiya rivojlanadi. Og'ir holatlarda alveolalar kollapsi (atelectasis), o'pka shishi va bronxospazm kuzatiladi. Shu sababli etiologiya va patogenezni chuqur tushunish — samarali davolash va parvarish ko'rsatish uchun asosiy omildir.





Pnevmoniya bu o'pka alveolalarining yallig'lanishi bilan ketuvchi infeksiyon kasallik hisoblanadi. Patogenezi infeksiyaning nafas yo'llariga tushishi bilan boshlanib, shilliq qavatda yallig'lanish jarayoni ketadi. Alveolalarga yallig'lanish suyuqliklari to'planadi, gaz almashinuv jarayoni buziladi, ya'ni kislorod kirishi sekinlashib, karbonat angidridning organizmdan chiqib ketishi kamayadi. Istim, holsizlik, titroq paydo bo'lishi kabi belgilar bilan namoyon bo'ladi. Alveolalarda suyuqlik to'planishi, nafas yetishmovchiligi kuzatiladi.

Bronxit – bronxlarning shilliq qavatining yallig'lanishi bilan kechadigan kasallik hisoblanadi. Viruslar, bakteriyalar, sovuq havo yoki allergen moddalarning bronxlarga kirishi bilan boshlanib, bronxlar shilliq qavatida shish, qizarish, yallig'lanish kabi belgilar namoyon bo'ladi. Shilliq bezlar ko'proq balg'am ishlab chiqaradi, ajralgan balg'am bronxlar ichida tiqilib, havo o'tishi qiyinlashib ketadi, natijada o'pkaga havo kam kirishi sababli hansirash paydo qiladi. Va natijada yo'tal kuchayib ketadi.

Bronxial astma- bronxlarda kechadigan surunkali allergik yallig'lanish kasalligi. Chang, gul changi, dorilar organizmga kirishi bilan boshlanadi. Organizmda gistamin ajralishi hisobiga bronxlar silliq mushaklarida spazm keltirib chiqaradi. Bronxlar keskin torayib ketishi natijasida havo o'tmay qoladi. Shish va balg'am ishlab chiqarilishi kuchayishi natijasida astma huruji paydo bo'ladi.

O'pkaning obstruktiv kasalliklari patogenezi surunkali bronxit va emfizema bilan harakterlanadi. Chekish, chang, kimyoviy moddalar bronxlarni doimiy ravishda shikastlaydi. Buning natijasida surunkali yallig'lanish kasalligi yuzaga keladi. Shilliq bezlar kengayishi kuzatiladi, qalin balg'am ishlab chiqariladi. Bronxlar ichki devori torayadi. Emfizemada esa alveolalar devori yorilib, bir- biri bilann qo'shilib ketishi kuzatiladi. O'pkada ventilyatsiya yuzasi kamayadi va natijasida doimiy nafas yetishmovchiligi rivojlanadi. Alveola elastikligining yo'qolishi, gaz almashinuvining pasayishi, kronik gipoksiya va yurak o'zgarishlari kabi asosiy o'zgarishlar bilan kechadi.

Tuberkulyoz – mycobacterium tuberculosis qo'zgatadigan o'pka to'qimalaridagi granulomatoz yallig'lanish chaqirishi billan kechadi. Bakteriya nafas yo'llariga kirib, makrofaglar ichida ko'payadi. Atrofida kazeozli granulomalar hosil bo'lib, to'qima yemiriladi. Gaz almashinuv maydoni kamayib, intoksikatsiya kuchayadi va odamda vazn kamayadi.

Plevrit- plevra bo'shlig'ida suyuqlik yoki yiring to'planib, suyuqlik bosimi oshishi natijasida o'pka siqiladi. O'pka ventilyatsiyasi kamayib, nafas





yetishmovchiligi paydo bo'ladi. Qaltirash, harorat ko'tarilishi, ko'krak sohasida og'riq kuzatiladi.

O'pka shishi – bunda alveolalarga suyuqlik to'planishi bilan kechadi. Yurak yetishmovchiligida yoki toksik omillar natijasida tomirlardan suyuqlik alveolalarga o'tib, alveolalarni to'ldiradi. Natijada havo kirishi keskin kamayib ketadi, "Ko'piklab nafas" paydo bo'ladi, og'ir gipoksiya rivojlanadi.

Klinik baholash — bemorga to'g'ri yondashuvni tanlashning birinchi va asosiy bosqichi.dastlab anamnez yig'ishdan boshlanadi. Bemorning shikoyatlari: yo'tal, balg'am, nafas qisilishi, isitma, kasallikning boshlanish va rivojlanish vaqti,qaysi omillar yo'talni kuchaytirishi yoki kamaytirishi, chekish tarixi (necha yil, kuniga nechta sigaret),allergiya mavjud yoki mavjudmasligi,oilaviy anamnez olinadi. Keyin,fizikal ko'rik boshlanadi. Bunda hamshira quyidagilarni baholaydi:nafas olish ritmi,ko'krak qafasining simmetriyasi, auskultatsiya: quruq xirillash, nam xirillash, hushtaksimon tovush, perkussiya: o'pka to'lgan (pnevmoniya) yoki bo'shashgan (emfizema), siyanoz mavjudligi aniqlanadi. Undan so'ng diagnostik tadqiqotlar tekshiriladi:

SpO₂ o'lchov: 94% dan past — xavf belgisi

Spirometriya: o'pka hajmlarini aniqlash

Rentgen va KT: o'pka infiltratlari, shish, atelektaz

Qon tahlillari: leykotsitoz, CRP ko'tarilishi

Balg'am tahlili olinadi.

Ushbu bosqich aniq tashxis qo'yish va parvarish rejasini tuzish uchun juda muhim.

Nafas tizimi kasalliklari bilan og'riqan bemorlarga hamshiralik parvarishi eng muhimi hisoblanadi. Parvarish nafaqat dori-darmon terapiyasini qo'llashni, balki bemorning umumiy holatini yaxshilash, nafas faoliyatini qo'llab-quvvatlash va asoratlarning oldini olishni o'z ichiga oladi. Asosiy vazifalari bemorni to'g'ri joylashtirish,nafas yo'llarini tozalash,ingalyatsiya muolajalarini bajarish,kislorod terapiyasini nazorat qilish,o'pka drenajini o'tkazish,gigiyenik parvarish,ichimlik va ovqatlanish rejimi,psixologik yordam ko'rsatish hisoblanadi.Bemorni to'g'ri holatga joylashtirish uchun yarim o'tirgan holatda yotqiziladi, nafas olishni yengillashtiradi,ortostatik holat: o'pka ventilyatsiyasini yaxshilaydi,og'ir nafas qisilishida bemor odatda qo'llarini oldinga tirab o'tiradi — hamshira uni qo'llab-quvvatlaydi.

Kislorod terapiyasi

Kanishnik: 1–5 L/min

Niqob: 5–10 L/min





Nebulyator orqali aralashmalar

Og'ir holat: sun'iy ventilyatsiya

Hamshira:

Kislorod balonini tekshiradi

SpO₂ ni kuzatadi

Qurilmani tozalaydi

Bemorning lab va burun shilliq qavatini qurib qolishdan himoya qiladi

Ingalyatsiya turlari:

Bronxodilatatorlar (salbutamol, berodual)

Kortikosteroid inhalyatorlar (budesonid)

Tuzli eritmalar

Nebulyatsiya

Hamshira bemorga:

Inhaler ushlar texnikasini ko'rsatadi

Nebulyatorni to'g'ri yig'adi va dezinfeksiya qiladi

Yon ta'sirlarni kuzatadi

Reabilitatsiya – bu nafas olish sistemasi kasalliklaridan keyin bemorlarning nafas faoliyatini, jismoniy imkoniyatlarini, psixologik va ijtimoiy holatini tiklashga e'tibor qaratadigan kompleks chora tadbirlar yig'indisi hisoblanadi. Ushbu jarayonning asosiy maqsadi bemorlarning hayot sifatini yaxshilash, ularda kasallikning qaytalanishining oldini olish hamda o'pka faoliyatini yuqori darajada tiklash hisoblanadi.

Reabilitatsiya jarayoni odatda 3 bosqichda amalga oshadi. Birinchi bosqich kasalxonada amalga oshiriladi. Sekin va chuqur nafas olish mashqlari, mukolitiklar yordamida balg'am chiqishini yaxshilash, kislorod terapiyasi, yengil jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish, ko'kraak qafasi massaji amalga oshiriladi. Bundan tashqari bemorni psixologik qo'llab-quvvatlash amalga oshiriladi. Ikkinchi bosqichi ambulator davr bo'lib uy sharoitida yoki poliklinikalarda amalga oshiriladi. Bunda doimiy nafas olish mashqlari, fizioterapiya, jismoniy mashqlar komplekslari, sog'lom ovqatlanish doimiy nazorat qilinadi. Uchinchi ijtimoiy reabilitatsiya davri hisoblanib, ishga qaytish, sportga qaytish, yomon odatlardan voz kechishga harakat qilinadi.

Xulosa

Nafas olish sistemasi kasalliklari global sog'liqni saqlash tizimi oldida turgan eng dolzarb klinik va epidemiologik muammolardan biri hisoblanib, ularning kechishi, patogenezi va asoratlari bemor organizmining barcha funksional tizimlariga o'zining chuqur ta'sirini ko'rsatadi. Shuning uchun ushbu kasalliklarda





parvarish jarayonini ilmiy asoslangan tamoyillar asosida tashkil etish nafaqat simptomatik yengillikni ta'minlaydi, balki davolash samaradorligini oshirib, asoratlarning chastotasini kamaytirish va reabilitatsiya jarayonini tezlashtirishga xizmat qiladi. Parvarish jarayonida nafas parametrlari monitoringi, kislorod terapiyasini to'g'ri boshqarish, nafas yo'llarining o'tkazuvchanligini ta'minlash, balg'amni samarali drenaj qilish, postural holatlarni qo'llash, gigiyenik omillarni nazorat qilish va bemor holatiga mos psixo-emotsional qo'llab-quvvatlash klinik natijalarni sezilarli darajada yaxshilaydi.

Shuningdek, zamonaviy parvarish natijalariga ko'ra, bemorlarning funksional imkoniyatlarini tiklash va asoratlarning oldini olishda erta reabilitatsiya — nafas mashqlari, fizioterapevtik muolajalar, individual jismoniy yuklama va ovqatlanish rejimini optimallashtirish asosiy o'rinni egallaydi. Reabilitatsiyaning tizimli qo'llanilishi nafaqat o'tkir davrda tiklanishni tezlashtiradi, balki surunkali kasalliklarda hayot sifatini barqaror oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, nafas tizimi kasalliklari bilan kasallangan bemorlarni ilmiy asoslangan, kompleks va individual yondashuv asosida parvarishlash klinik amaliyotda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayon davolash samaradorligini oshirish, nogironlik darajasini kamaytirish, bemorlarning psixofiziologik holatini yaxshilash va ularning jamiyatga faol qaytishini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov, U. Anatomiya va fiziologiya – Toshkent: Ibn Sino nashriyoti, 2019
2. Jo'rayev, S. Pulmonologiya asoslari – Toshkent: TMA nashriyoti, 2022
3. Goldberg, A. Nursing Care of Patients with Respiratory Disorders. – New York: Springer Publishing, 2020.
4. National Institutes of Health. Pulmonary Diseases and Disorders – (www.nih.gov)

